6.4. Xizmatlarga o'z vaqtida haq to'lamaganligi uchun «Buyurtmachi» «Bajaruvchi»ga kechiktirilgan har bir kun uchun muddati o'tkazib yuborilgan to'lovning 0,4 foizi miqdorida, biroq muddati o'tkazib yuborilgan to'lovning 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

## 7. Taqiqlar

7.1. Quyidagilar taqiqlanadi:

- mazkur Shartnomaning 5.1, 5.2, 5.3, 5.4-bandlarida ko'rsatilgan talablar buzilgan holda rasmiylashtirilgan jo'natmalarni jo'natish.
- «Bajaruvchi» orqali kontrabanda, radioaktiv, zaharlovchi, portlash xavfi bo'lgan. tez alangalanadigan va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida taqiqlangan boshqa moddalar va buyumlarni jo'natish.

## 8. Fors-major

«Bajaruvchi» fors-major holatlarda jo'natmalar yo'qolganligi, o'g'irlanganligi yoki shikastlanganligi uchun javob bermaydi, aynan:

8.1. Suv toshqini, yong'in, zilzila bo'lganda va boshqa tabiiy ofatlarda;

8.2. «Bajaruvchi»ning xodimi halok bo'lganda yoki favqulodda vaziyatlarda;

8.3. Mazkur Shartnomaning 7-bo'limida ko'rsatilgan moddalar va buyumlar «Bajaruvchi» orqali jo'natilganda yoki kontrabanda va taqiqlangan tijorat jo'natmalari vakolatli organlar tomonidan hibsga olinganda yoki musodara qilinganda;

8.4. Noqulay meteorologiya sharoitlarida va havo kemasining texnik nosozligida.

8.5. Fors-major holatlarda «Bajaruvchi» «Buyurtmachi»ni yozma ravishda xabardor qiladi.

## 9. Nizolarni hal etish

9.1. Mazkur Shartnoma bajarilishi bilan bog'liq barcha nizolar mumkin qadar tomonlarning muzokaralar olib borishi yoxud davo xati jo'natish yo'li bilan hal etilishi kerak.

9.2. Tomonlar kelishuvga erishmagan taqdirda nizolarni hal etish O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq viloyat sud tartibida amalga oshiriladi.

## 10. Shartnomaning amal qilish muddati

10.1. Mazkur Shartnoma tomonlar imzolagan kundan boshlab kuchga kiradi va «05» январ 2022 dan 2022 y. «31» декабр gacha amal qiladi.

10.2. Mazkur Shartnomaga kiritilgan har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular yozma shaklda rasmiylashtirilgan va tomonlarning har biri tomonidan imzolangan bo'lsa, bajarilishi majburiy hisoblanadi.

10.3. Mazkur Shartnoma ikki nusxada tuzildi, ularning har ikkalasi bir xil yuridik kuchga ega.

### Tomonlarning yuridik manzillari, bank rekvizitlari va telefonlari

**«BAJARUVCHI»**

Buxoro sh. Navoiy ko'chasi, 5/1 uy
Tel.: faks 65 223-40-12,65 223-80-43
Sh.x.v. 20203000000533934003
ATSQB Buxoro sh MFO 00086
XTUT 201514406, OKONX 52200

**Boshliq** G' M. Djurayev

20___y. «_____»_______________

M.O'.

**«BUYURTMACHI»**

ЎзР Монополияга қарши кураш Қўмитасининг Бухоро в.х.б.
Бухоро ш. М.Каримов к. 10 уй
Бухоро в б-га Ғазначилик бош.
х.р. 23402000300100001010
Марказий банк ХККМ Тош
МФО 00014 ш.х.в: 100021860064017094
27800

20___y. «_____»_______________ Н. Жабборов

M.O'.

Buxoro viloyat bosmaxonasi MCHJ, tel: 223-25-38, b1487

М.Ў. Эргашев
бош юрисконсульт